



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O‘ZBEK VA XITOIY TILLARIDA FE’L TRANSPOZITSIYASINING TIPOLOGIK FARQLARI

Ochilova Hilola Husan qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek va xitoy tillarida fe’l transpozitsiyasining tipologik xususiyatlari qiyosiy-tahliliy asosda o‘rganiladi. Tadqiqotda transpozitsiya tushunchasining g‘arb va rus tilshunosligidagi nazariy talqinlari tahlil qilinib, ushbu yondashuvlarning turli tipologik tuzilishga ega bo‘lgan tillarga tatbiq etilish imkoniyatlari baholanadi. Xususan, Hind-Yevropa tillariga xos bo‘lgan morfologik transpozitsiya va affiksatsiya asosidagi yondashuvlar agglutinatив va izolyativ tuzilishga ega tillarda bir xil darajada qo‘llanilmasligi ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi. Natijada o‘zbek va xitoy tillarida fe’l transpozitsiyasi turli tipologik mexanizmlar orqali amalga oshishi, ya’ni o‘zbek tilida morfologik, xitoy tilida esa sintaktik-funksional xarakterga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, grammatik tipologiya, tarjima nazariyasi hamda xitoy va o‘zbek tillarini o‘qitish metodikasi uchun muhim nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: fe’l transpozitsiyasi, transpozitsiya nazariyasi, qiyosiy tilshunoslik, grammatik tipologiya, o‘zbek tili, xitoy tili, agglutinatив til, izolyativ til, konversiya, nol shaklli transpozitsiya, otlashuv.

ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ ТРАНСПОЗИЦИИ ГЛАГОЛОВ В УЗБЕКСКОМ И КИТАЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Очилова Хилола Хусан кизи

Самаркандский государственный институт иностранных языков, старший преподаватель

Аннотация

В данной статье на сравнительно-аналитической основе исследуются типологические особенности транспозиции глагола в узбекском и китайском языках. В работе анализируются теоретические интерпретации понятия транспозиции в западной и русской лингвистике, а также оценивается возможность применения данных подходов к языкам с различной типологической структурой. В частности, научно обосновывается, что модели морфологической транспозиции и аффиксации, характерные для индоевропейских языков, не могут в равной степени применяться к агглютинативным и изолирующим языкам. В результате исследования установлено, что транспозиция глагола в узбекском и китайском языках реализуется посредством различных типологических механизмов: в узбекском языке она носит преимущественно морфологический характер, тогда как в китайском языке проявляется главным образом на синтаксико-функциональном уровне. Полученные результаты имеют важное теоретическое значение для сравнительного языкознания, грамматической типологии, теории перевода, а также методики преподавания китайского и узбекского языков.

Ключевые слова: транспозиция глагола, теория транспозиции, сравнительное языкознание, грамматическая типология, узбекский язык, китайский язык, агглютинативный язык, изолирующий язык, конверсия, нулевая транспозиция, субстантивация.

TYPOLOGICAL DIFFERENCES OF VERB TRANSPOSITION IN UZBEK AND

CHINESE LANGUAGES

Ochilova Hilola Husan qizi

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Senior Lecturer

Abstract

This article examines the typological characteristics of verb transposition in Uzbek and Chinese based on a comparative analytical approach. The study analyzes theoretical interpretations of the concept of transposition in Western and Russian linguistics and evaluates the applicability of these approaches to languages with different typological structures. In particular, it is demonstrated that the models of morphological transposition and affixation typical of Indo-European languages cannot be equally applied to agglutinative and isolating languages. The study concludes that verb transposition in Uzbek and Chinese is realized through different typological mechanisms: in Uzbek it mainly has a morphological character, whereas in Chinese it is primarily manifested at the syntactic-functional level. The results of the research are of significant theoretical importance for comparative linguistics, grammatical typology, translation studies, and the methodology of teaching Chinese and Uzbek languages.

Keywords: verb transposition, theory of transposition, comparative linguistics, grammatical typology, Uzbek language, Chinese language, agglutinative language, isolating language, conversion, zero transposition, substantivization.

G'arb va rus tilshunosligida transpozitsiya tushunchasining doirasga quyidagi asosiy xususiyatlarni kirgizishgan.

- a) soʻz turkumlarining tarixiy-geneologik aloqasi;
- b) soʻz yasalihi;
- v) sinxron plandagi soʻz turkumlariaro koʻchish.

Albatta, bunday yondoshuvlarga avvalo usha til oilasiga va tipologiyaga mansub tillarning (fransuz, ingliz, rus...) lingvistik tabiati va ularda STDKning yuz berish mexanizmiga asoslanadi. Ushbu nuqtai nazardan kelib chiqib, yoʻqoridagi ilmiy yondashuv sxemasini til oilasi va strukturasi farqli boʻlgan oʻzbek tili va xitoy tiliga aynan qoʻllab boʻlmasligini taʼkidlash lozim. Quyida ushbu aks holatning sabablarini koʻrib chiqamiz:

- Oʻzbek tili tabiatdan tipik agglutinativ tillar boʻlganligi uchun soʻz yasalganda, soʻzning loʻgʻaviy shakl hosil qiluvchi va aloqa-munosabat hosil qiluvchi shakllari qoʻshilganda yoki soʻz koʻchirilganda ham soʻz oʻzak negizidan oʻzgarmaydi; Xitoy tili esa tabiatdan amorf tillar sirasiga kirib, soʻz asosi boʻgʻinlardan iborat, asosga maʼlum bir qoʻshimchani qoʻshilib, malum bir shakl oʻzgarishlariga ushrash holati deyarli koʻztilmaydi. Faqat, ot va sifat turkumi doirasida ayrim otlik va sifatlik belgisini namoyon qiluvchi qoʻshimcha signal soʻzlarni koʻrishimiz mumkin, ularning asosiy funksiyasi soʻzning maʼlum turkumga tegishli ekanligini ajratib koʻrsatib turishdir.

- Oʻzbek tilida yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar soʻz oʻzagidan keyin keladi. Artikl, aksidensiya kabi grammatik koʻrsatgichlar mutlaqo yuq. Grammatik kategoriya koʻrsatgichlari soʻz tarkibidagi eng sungi qoʻshimchalardir.² Xitoy tilida ot turkumiga xos soʻzlarning kontekslarda oʻziga tegishli hisob soʻzlar bilan kelishi koʻzatiladi.

- Turkiy tillarda maxsus soʻz yasash tizimi va mexanizmi mavjud, ular tilning soʻz yasash qoliplari shaklida mavjuddir³ va mazkur tizim yordamida yasalgan soʻzlarning kategorial maʼnosi, paradigmatic va sintagmatic belgilari tubdan oʻzgaradi va u til tizimidagi yangi soʻzga aylanadi, har qanday holda ham oʻzining yasalihi asos boʻlgan soʻzni anglatmaydi, uning omonimik jufti boʻlmaydi. Qiyoslang: (V- feʼl) kiy+im > kiyim (N –ot); (N –ot) chiroy+li > chiroyli (At – cifat); (N – ot) ish+la > ishla (V –feʼl). Shuningdek, turkiy tillar soʻz yasash tizimi

va soʻzning morfologik tarkibi qatʼiy qoidalarga koʻra amalda boʻladi (oʻzak+ yasovchi qoʻshimcha+soʻz oʻzgartiruvchi (shakl yasovchi) qoʻshimcha qolipida), soʻzni tashkil etuvchi unsurlar oʻzgarmaydi va ular nisbatan avtonomlikni saqlab qoladi. Masalan, oʻzakdan negizning avtonomligi.

Xitoy tilida esa ayrim turkumlar doirasida, xususan ot va sifat turkumida soʻz yasalishi kuzatiladi.

- Mazkur tillarda hech qanday qoidaning (qolipning) istisnosi yoʻq va koʻchishdan boshqa har qanday holda grammatik xususiyatlar oʻz ahamiyatini saqlab qoladi.

Demak, yuqorida koʻrsatilgan prinsipial lisoniy sabablar oʻzbek va xitoy tillaridagi STDK hollarini Hind-Evropa tillaridagi kabi taʼriflashni imkonsiz qilib qoʻyadi. Chunki ushbu tillardagi STDKning tarixiy shakli (morfologik transpozitsiya) STaro geneologik va ierarxik aloqa shaklida; affiksatsiya – soʻz yasash tizimi (sathi) shaklida namoyon boʻladi va natijada oʻzbek va xitoy tillarida V.G. Gak konversiya deb atagan koʻchish turigina bor ekanligi hamda aksariyat hollarda u sinxron planda (sintaktik transpozitsiya shaklida) mavjudligi oʻrtaga chiqadi.

Feʼl transpozitsiyasi — feʼlning oʻzining leksik yadrosini saqlagan holda, boshqa soʻz turkumiga (ot, sifat, ravish va h.k.) oʻtishi hodisasidir. Bu jarayon flektiv (oʻzbek) va izolyativ (xitoy) tillarda mutlaqo turli mexanizmlar asosida amalga oshadi.

Oʻzbek va xitoy tillarini qiyosiy jihatdan tahlil qilgan V.M. Solntsev quyidagi xulosaga keladi: “Xitoy tilida feʼlning otga oʻtishi koʻpincha hech qanday formal koʻrsatkichsiz amalga oshadi, turkiy tillarda esa bu jarayon morfologik vositalar orqali aniq belgilangan boʻladi.” (Solntsev V.M., Xitoy tilining tipologiyasi, Moskva: Nauka, 1995, 76-bet). Bu xulosa oʻzbek va xitoy tillarida feʼl transpozitsiyasining tipologik farqini aniq ilmiy dalil bilan asoslaydi.

Rus tilshunos olimi Viktor Vinogradov: “Транспозиция есть функционально-семантическое перераспределение слова в системе частей речи.” “Transpozitsiya — soʻzning soʻz turkumlari tizimidagi funksional va semantik jihatdan qayta taqsimlanishidir.” deya bergan tarifi xitoy tilidagi transpozitsiyaga ayni mos keladi. (Viktor Vinogradov. Русский язык (Грамматическое учение о слове) Moskva., 1972., 38–39). Oʻzbek tilida feʼl transpozitsiyasi (flektiv-agglutinatip) asosiy tipologik xususiyatlardan biri morfologik vositalar orqali yuzaga kelishidir:

- affiksatsiya (–ish, –moq, –uvchi, –gan)
- sintaktik kengayish
- otlashuv (substantivatsiya)

A.Abduazizov: “Oʻzbek tilida feʼlning otlashuvi asosan affiksial vositalar orqali amalga oshadi” (A. Abduazizov, Oʻzbek tilining grammatikasi. Toshkent., 1992, 112–113 b) deydi. Ushbu fikrga qoʻshimcha qilib, feʼlning transpozitsiyasini R. Rahmatullayev “Otlashgan feʼl shakllari feʼlga xos grammatik kategoriyalarni yoʻqotadi.” (R.Rahmatullayev, Hozirgi oʻzbek adabiy tili., Toshkent., 2008., 186-b) degan xulosani beradi. Yaʼni, feʼlning otlashgan shakllari zamon, shaxs-son kabi feʼl kategoriyalaridan xoli boʻladi va otga xos funksiyani bajaradi. Bu fikr oʻzbek tilida transpozitsiyaning formal-morfologik xarakterga ega ekanini koʻrsatadi.

Oʻzbek tilida feʼl → ot transpozitsiyasida morfologik oʻzgarishlarni yaqqol koʻrishimiz mumkin. Tilshunos olim O.Mahmudov: “Feʼl negizidan yasalgan otlar semantik jihatdan jarayon va natija maʼnolarini ifodalaydi.” deydi. Va ushbu misolni keltiradi. Oʻqish — inson hayotidagi muhim jarayondir. (O.Mahmudov: Hozirgi oʻzbek adabiy tili., Toshkent., 2006., 154) Bu yerda oʻqish grammatik jihatdan toʻliq ot vazifasida kelgan.

Oʻzbek tilida feʼl → sifat / ravish transpozitsiyasida asosiy yetakchi affikslar –gan / –adigan (sifatdosh); –ib / –a (ravishdosh) hisoblanadi.

Yozilgan maktub stol ustida turibdi.

U kulib gapirdi.

Bu holatda ham feʼl grammatik kategoriya orqali transpozitsiyaga uchraydi.

Xitoy tilida fe'l transpozitsiyasi til xususiyatidan kelib chiqib, izolyativ tipga mansub bo'lib, affiksatsiya deyarli yo'qligi, transpozitsiya sintaktik pozitsiya va funksional yuklama orqali yuz berishi tipologik asos hisoblanadi.

Lu Shuxiang: "汉语词类的划分主要依赖句法功能，而非形态变化。" ya'ni, Xitoy tilida so'z turkumlarining ajratilishi asosan sintaktik funksiyaga tayanadi, shakli (morfologik) o'zgarishlarga emas. (吕叔湘, 1980). Fe'l → ot transpozitsiyasi (零形式转类)ga misollarni tahlil qiadigan bo'lsak, ushbu tipik farqlarni aniq anglaymiz: 学习很重要。O'qish juda muhim. Bu yerda 学习 hech qanday affikssiz, sintaktik funksiyasi orqali otlashgan. Yana shunga o'xshash misollar: 研究开始了 tadqiqot boshlandi/建设正在进行 qurilish ayni damda amalga oshmoqda

Tilshunos olim Li Jinxi fe'llarni sifatga ko'chishini shunday izohlaydi: "Fe'llar xitoy tilida bevosita otni aniqlashi mumkin, bu esa xitoy tilida so'z turkumlarining yuqori darajadagi moslashuvchanligini namoyon etadi." ("动词可直接修饰名词，体现汉语高度的词类灵活性。") (黎锦熙, 1954)

Fe'l → sifat transpozitsiyasi (atributivlashuv)ida ham so'zni aniqlovchi pozitsiyaga xoslovchi aniq shakl 的 ning yordamida fe'l osonlik bilan sifatdoshga aylanadi va gapda aniqlovchi vasifasini bajaradi. 发展的国家 Rivojlanayotgan davlat. Bu yerda 发展 fe'li sifat vazifasini bajarmoqda.

Fe'ling boshqa so'z turkumiga o'tishi bilan predikativlik darajasi pasayadi, ammo harakat semantikasi saqlanib qoladi. Buni tilshunos olim Bondarko ham tasdiqlaydi: "Транспозиция сопровождается ослаблением предикативных признаков при сохранении процессуальности" (Bondarko., 1991)

Masalan o'zbek tilida: Uning kelishi kutilmoqda. ushbu gapda → kelishi — predikativ emas, lekin jarayonlik saqlangan.

Xitoy tili: 到来是不可避免的。 (Kelish muqarrar.) ushbu gapda → 到来 fe'l bo'lishiga qaramay, ega (主语) pozitsiyasida turib, ot funksiyasini bajarmoqda.

O'zbek tilida fe'l transpozitsiyasi zamon, nisbat, shaxs-son kategoriyalaridan ajralgan holda yuz beradi: Yozilgan kitob. Bu yerda yozilgan so'zida: zamon → neytrallashgan, shaxs → yo'q, fe'l → sifatga kuchgan.

Tilshunos olim Rahmatullayev ushbu holni izohlab: "Otlashgan fe'l shakllari fe'lga xos grammatik kategoriyalarni yo'qotadi." (Rahmatullayev, 2008)

Xitoy tilida esa kategoriyalarsiz transpozitsiyani kuzatamiz, fe'ling o'zi zamon bilan belgilanmaydi, shaxs-son yo'q, nisbat formal emas. Shu sababli transpozitsiya kategoriyalardan ajralishsiz sodir bo'ladi: 讨论已经开始了。 (Muhokama boshlangan). Ushbu gapda 讨论 kontekstda fe'ling nol shaklida, otga ko'chmoqda. Yuan Yulin (《现代汉语词类问题研究》 2004, 27–28-b.) ta'kidlaganidek, "汉语动词与名词之间不存在严格的形式界限", ya'ni xitoy tilida fe'l va ot o'rtasida qat'iy morfologik chegara mavjud emas. Mazkur holat xitoy tilida fe'l transpozitsiyasining nol shaklda va sintaktik pozitsiya asosida amalga oshishiga zamin yaratadi.

Fe'l transpozitsiyasi va semantik tiplar Pan Wuyun (1997, 84-b.) ta'kidlaydiki, "动词名物化可表达过程、结果与状态三类意义", ya'ni fe'ling otlashuvi jarayon, natija va holat ma'nolarini ifodalash imkoniga ega bo'lib, bu holat xitoy tilida fe'l transpozitsiyasining semantik ko'p qatlamliligini ko'rsatadi. Masalan, 建设 jarayon, 完成 natija, 破裂 holat. O'zbek tilida ham ayni shu sematikani kuzatamiz, o'qish jarayon, qurilish natija, siniq holat.

Transpozitsiya o'zbek tilida — qisman majburiy. Ba'zi sintaktik vazifalar faqat transpozitsiya orqali ifodalanadi: Kelmoq muhim. deb bo'lmaydi, Kelish muhim. desa bo'ladi

Xitoy tilida esa bu jarayon, nisbatan ixtiyoriy: 来很重要。来到很重要。 Ikkala jumla ham grammatik jihatdan to'g'ri. Va ma'no yakdilligiga ega. Gao Mingkai (《汉语语法论》 1963, 101-b.) qayd etishicha, "汉语允许动词直接承担名词句法功能", ya'ni xitoy tilida

fe'ning otlashuvi morfologik o'zgarishsiz, sintaktik funktsiya orqali amalga oshadi; bu esa xitoy tilida nol shaklli transpozitsiyaning tipologik asosini tashkil etadi.

Xitoy tilida so'z turkumlariaro o'tish hodisasi yuqori darajada rivojlangan bo'lib, bu holat ko'pincha so'z turkumlari bo'yicha ikkiyoqlamalik (歧义)ni keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan xitoy tilshunosi He Leshi quyidagi fikrni ilgari suradi: “词类歧义是汉语转类现象的自然结果” (He Leshi, 现代汉语语法研究, 2000, 143-b.), ya'ni so'z turkumlari noaniqligi xitoy tilidagi transpozitsiya hodisasining tabiiy natijasidir. Bu holat xitoy tilining izolyativ tipga mansubligi, so'zlarning morfologik jihatdan o'zgarmasligi va so'z turkumlari chegarasining qat'iy belgilanmaganligi bilan izohlanadi.

O'zbek tilida esa so'z turkumlariaro o'tish mavjud bo'lsa-da, u morfologik ko'rsatkichlar orqali aniq belgilanganligi sababli ikkiyoqlamalik holatlari nisbatan kam uchraydi. Masalan, yozmoq fe'li yozish, yozuvchi, yozilgan kabi shakllarda turli so'z turkumlariga o'tsada, affikslar orqali uning grammatik maqomi aniq ko'rinadi. Natijada o'zbek tilida so'z turkumlari chegarasi nisbatan barqaror va formal jihatdan aniqlangan bo'lib, kontekstga bog'liqlik xitoy tiliga nisbatan ancha past darajada namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, xitoy tilida so'z turkumlari bo'yicha noaniqlik transpozitsiyaning tabiiy oqibati sifatida qaralsa, o'zbek tilida transpozitsiya formal-morfologik vositalar bilan cheklangan va nazoratlangan hodisa hisoblanadi. Ushbu tipologik farq qiyosiy tilshunoslikda, ayniqsa xitoy-o'zbek tarjima jarayonida so'z turkumlarini to'g'ri aniqlashda, tilni o'qitish va grammatik modellashtirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduazizov A.A. O'zbek tilining grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Rahmatullayev R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2008.
3. Mahmudov O. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. Solntsev V.M. Типология китайского языка. – Москва: Наука, 1995.
5. Vinogradov V.V. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – Москва: Высшая школа, 1972.
6. Bondarko A.V. Функциональная грамматика. – Ленинград: Наука, 1991.
7. Gak V.G. Сопоставительная лексикология. – Москва: Международные отношения, 1977.
8. Lü Shuxiang (吕叔湘). 现代汉语八百词. – 北京: 商务印书馆, 1980.
9. Li Jinxi (黎锦熙). 新著国语文法. – 北京: 商务印书馆, 1954.
10. Gao Mingkai (高名凯). 汉语语法论. – 北京: 科学出版社, 1963.
11. Yuan Yulin (袁毓林). 现代汉语词类问题研究. – 北京: 商务印书馆, 2004.
12. Pan Wuyun (潘悟云). 汉语历史音韵学. – 上海: 上海教育出版社, 1997.
13. He Leshi (何乐士). 现代汉语语法研究. – 北京: 商务印书馆, 2000.